

## ALISHER NAVOIYNING "ARBA'IN" ASARI

301-guruh talabasi

**Bekmirzayeva Mashhura**

**Annotatsiya:** *Maqolada qirq hadisni o'zida jamlagan "Arba'in" asarining Alisher Navoiy tarjimalaridagi sharhlari haqida fikr yuritilgan.*

**Kalit so'zlar:** *tarjima sharhi, muqaddima, hadis*

Ma'lumki, Alisher Navoiy qalamiga mansub she'riyatning barchasi "Xazoyin ul-" tarkibiga kiritilmagan. Ularning ayrimlari mustaqil asarlar sifatida taqdim etilgan. Ana shunday asarlardan biri "Arba'in"ni misol qilib keltirish mumkin. Navoiyning "Arba'in" yoki "Chihil hadis" ("Qirq hadis") asari 1481-yilda yaratilgan bo'lib, u inson axloq-odobiga doir 40 hadisning she'riy tarjimasini hisoblanadi. Asar an'anaviy hamd va Na't bilan boshlanadi.

Muqaddima – "Sababi ta'lifi manzumada Navoiy ustoz Abdurahmon Jomiy sahih hadislardan 40 tasini tanlab olib, forsiy tilda "Arba'in" yaratganini, lekin turkiy ktobxon bu chashmadan bebahra ekanligini aytib, Jomiyning ruxsati bilan shu 40 hadisni turkiy tilga tarjima qilganligini yozadi:

"Ul vaqtda kim alar "Arba'in hadis"ni forsiy nazm bila tarjima qilib erdilar va ma'hud odat bila borcha ashobdin burunroq faqirg'a iltifot qilib, musavvadasin berdilar, chun mutolaasig'a mashg'ul bo'ldum..., hamul "Arba'in" g'a turkicha til bila tarjima orzusi ko'ngulga tushti. Alardin ruxsat sharafiga musharraf bo'lg'ondin so'ngra hamul kun ul samin javohir nazm silkiga kirdi"

"Arba'in"ning asosiy qismi "Sizlardan hech biringiz o'ziga ravo ko'rgan narsasini birodariga ravo ko'rmaguncha, chin mo'min bo'lolmaydi" degan mashhur hadisning navoiyona talqini bilan boshlanadi:

Mo'min ermastur, ulki iymondin

Ro'zgorida yuz safo ko'rgay.

Toki qardoshiga ravo ho'rmas –

Har nekim o'ziga ravo ko'rgay.

Keyingi hadislarda ham haqiqiy mo'minga xos fazilatlar targ'ib qilinadi. (2-hadis) Mo'min kishi biror narsasini boshqa kishiga berishi yoki bermasligi hammasi Alloh uchun bo'ladi:

Kimgakim hubbu bug'zu man'u ato

Haq uchun bo'ldi jazm bil oni,

Kim erur tengri lutfidin komil

Ahli imon qoshida iymoni.

(3-hadis) Musulmon inson tili va qo'li bilan birodariga yomonlik qilmasligi, birodari doimo omanda bo'lishi haqida:

Kim musulmonlig' aylasa da'vo

Chin emas gar fido qilur jonlar.

Ul musulmondururki, solimdur.

Tili-yu ilgidin musulmonlar.

(4-hadis)Mo'min kishiga baxillik va badxulqlik begona ekanligi. Tangri hech qaysi mo'min insonda bunday fazilatlarni jam qilmagani to'g'risida:

Mo'min ersang qilib durringni nisor,

El bila ravshan o'l nechukkim sham'.

Negakim, tengri hech mo'minda,

Buxlu badxo'yluqni qilmadi jam'

(5-hadis)Yigitlik chog'idan ikki fe'lini o'ldirmasa: biri hirsu, biri tuli amal. Inson qarigani sari barcha ishlarga halal berishi haqida:

Odamig'a agarchi voqe erur

Qarigan sori barcha ishda xalal.

Ikki fe'li vale yigitrak o'lur:

Biri hirsu birisi tuli amal.

(6-hadis). Musulmon inson doimo Allohga shukr keltirishi haqida:

Ulki xoliqga shukr der, avval

Shokir o'lmoq kerak xaloyiqdin.

Kimki, maxluq shukrini demagay,

Demagay dag'i shukr xoliqdin.

Ayrim qit'alarda yuksak insoniy fazilatlar tarannum etilsa, ayrimlarida yomon illatlardan qaytariladi, ularda insonning hayot va jamiyatdagi vazifasi anglatiladi.

Masalan: Va'da---va'fosi bilan go'zal degan hadisni Alisher Navoiy turkiy tilda shunday ifoda etadi:

Kimki har kimga va'dae qildi,

Shart erur va'dag'a vafo qilmoq.

Va'dakim qilding o'yladurkim dayn,

Farzdur qarzni ado qilmoq.

“Qaysi majlisda so'z eshitsang, u so'z senga omonatligini bilgin. Agarda u so'zni boshqa joyda naql qilsang, omonatga hiyonat qilgan bo'lasan” degan hadisni shoir talqin qiladi:

Qaysi majlisdakim eshitsang so'z,

Bilgil ul so'z sanga amonatdur.

Gar ani o'zga yerda naql etsang,

Ul amonatg'a bu xiyonatdur.

“Arba'in” uchun tanlab olingan hadislarning asosiy qismi XV asr ziyoli qatlami uchun ma'lum va mashhur bo'lib, jonli muloqotda maqol va hikmatli so'zlardek tez-tez takrorlanib turgan. Sunday qilib, Alisher Navoiyning “Arba'in hadis” yoki “Arba'in” deb ataluvchi asari hadislar misolida muallifning hayot va insoniylikka doir mulohaza va mushohadalarini yaqqol gavdalantiradi.



**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Arba'iyin / Nashrga tayyorlovchi Suyuma G'aniyeva Toshkent "Fan" 2000
2. Sirojiddinov Sh., Davlatov O., Yusupova D. Navoiyshunoslik 2018